
Stages in the study of the history of medical science

Toshpulatov Bekzod Shukhratovich

b.toshpulatov@mail.ru

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,

Associate Professor,

Independent Researcher,

Karshi State University

Annotation

This article analyzes the process of studying the history of medical science and the stages of its formation and development from a historiographical perspective. It examines the emergence of scholarly research on the history of medicine and the historical study of medical institutions, scientific schools, medical education, and research activities during different periods. The article also analyzes the main sources, scholarly approaches, and methodological principles employed in studies on the history of medicine and identifies the distinctive features of research in this field across different historical periods. Particular attention is paid to the priority areas of the contemporary stage in the study of the history of medical science and to current issues in historiography.

Keywords

History of medical science, historiography, history of medicine, scientific research, medical education, medical institutions, scientific schools, sources, methodology, historical research, Uzbekistan

Tibbiyot fani tarixining o'rganilish bosqichlari

Toshpo'latov Bekzod Shuxratovich,

b.toshpulatov@mail.ru

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent,

Mustaqil tadqiqotchi,

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada tibbiyot fani tarixining o'rganilish jarayoni, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Tibbiyot tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishi, turli davrlarda tibbiyot muassasalari, ilmiy maktablar, tibbiyot ta'limi va ilmiy-tadqiqot faoliyatining tarixiy jihatdan o'rganilishi yoritiladi. Shuningdek, tibbiyot tarixi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda foydalanilgan asosiy manbalar, ilmiy yondashuvlar va metodologik tamoyillar tahlil qilinib, turli tarixiy davrlarda mazkur yo'nalishning o'rganilishidagi o'ziga xos jihatlar ochib beriladi. Maqolada tibbiyot fani tarixini o'rganishning zamonaviy bosqichidagi ustuvor yo'nalishlar va dolzarb tarixshunoslik masalalariga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar

Tibbiyot fani tarixi, tarixshunoslik, tibbiyot tarixi, ilmiy tadqiqotlar, tibbiyot ta'limi, tibbiyot muassasalari, ilmiy maktablar, manbalar, metodologiya, tarixiy tadqiqot, O'zbekiston

Этапы изучения истории медицинской науки

Тошпулатов Бекзод Шухратович

b.toshpulatov@mail.ru

Доктор философии (PhD) по
историческим наукам,

Доцент,

Независимый исследователь,
Каршинский государственный университет

Аннотация

В данной статье с историографической точки зрения анализируется процесс изучения истории медицинской науки, а также этапы её становления и развития. Освещаются возникновение научных исследований по истории медицины, историческое изучение медицинских учреждений, научных школ, медицинского образования и научно-исследовательской деятельности в различные периоды. Кроме того, анализируются основные источники, научные подходы и методологические принципы, использованные в исследованиях по истории медицины, раскрываются специфические особенности изучения данного направления на различных исторических этапах. Особое внимание в статье уделяется приоритетным направлениям современного этапа изучения истории медицинской науки и актуальным проблемам историографии.

Ключевые слова

История медицинской науки, историография, история медицины, научные исследования, медицинское образование, медицинские учреждения, научные школы, источники, методология, историческое исследование, Узбекистан

Kirish

Tibbiyot tarixini o'rganish an'anasi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. G'arb ilmiy tafakkurida uning dastlabki ko'rinishlarini Gippokrat (1994) asarlari, xususan, "Qadimgi tibbiyot haqida" nomli asari bilan bog'lash mumkin. Qadimgi Yunoniston va Yaqin Sharq hududlarida shakllangan tibbiy bilimlar keyingi avlod shifokorlari uchun muhim ilmiy meros vazifasini bajargan. Uzoq vaqt davomida tibbiyot bo'yicha bilim olish jarayoni avvalgi davr tabiblarining asarlarini o'rganish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shu sababli kutubxonalar nafaqat bilim saqlanadigan maskan, balki tibbiy ta'limning muhim markazlaridan biri sifatida ham faoliyat yuritgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib, ilm-fandagi umumiy o'zgarishlar tibbiyot

tarixini o'rganishga bo'lgan munosabatga ham ta'sir ko'rsatdi. Taraqqiyot va ilmiy ixtisoslashuv g'oyalarining kuchayishi natijasida tibbiyotning amaliy hamda tarixiy yo'nalishlari asta-sekin bir-biridan ajrala boshladi. Shifokorlarning asosiy ilmiy faoliyati klinik amaliyot va laboratoriya tadqiqotlariga yo'naltirilgan bo'lsa, tibbiyot tarixchilari o'z e'tiborlarini yozma manbalar, qadimgi tibbiy asarlar va tarixiy hujjatlarni o'rganishga qaratdilar. Natijada tibbiyot tarixi ma'lum ma'noda tibbiyot fanining ichki, ixtisoslashgan sohasi sifatida shakllandi.

Biroq uzoq vaqt davomida tibbiyot tarixchilari umumiy tarix fanining vakillaridan nisbatan ajralgan holda faoliyat olib bordilar. Bunga ularning maxsus tibbiy manbalarni o'rganishi, tibbiy amaliyot bilan bevosita yoki bilvosita aloqadorligi hamda shifokorlik

kasbiga xos professional dunyoqarashning saqlanib qolishi sabab bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelibgina bu ikki yo'nalish o'rtasidagi chegaralar sezilarli darajada yumshay boshladi. Natijada tibbiyot tarixini faqat tibbiy bilimlarning evolyusiyasi sifatida emas, balki jamiyat, madaniyat, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda o'rganishga imkon beruvchi tibbiyotning ijtimoiy tarixi shakllandi. Bugungi kunda ushbu yo'nalish turli mamlakatlardagi tarixchilar, shifokorlar, sosiologlar va boshqa fan vakillarini birlashtirgan keng ilmiy tadqiqot maydoniga aylangan.

Asosiy qism

Zamonaviy tarixshunoslik tibbiyot tarixini yagona va o'zgarmas ilmiy yo'nalish sifatida talqin qilishdan voz kechmoqda. Chunki uning rivojlanishi davomida turli ilmiy konsepsiyalar, tadqiqot dasturlari va metodologik yondashuvlar yuzaga kelgan. Tadqiqotchilarning murojaat qilgan auditoriyasi ham bir xil bo'lmagan: ayrim asarlar tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lsa, boshqalari amaliyotchi shifokorlar yoki keng jamoatchilikka qaratilgan. Shu jihatdan, tibbiyot tarixini faqat tibbiy ta'limning yordamchi predmeti sifatida baholash uning ko'p qirrali tarixshunoslik xususiyatlarini cheklab qo'yadi (Huisman, 2004).

XIX asr boshlarida Germaniyada tibbiyot tarixining yangi talqini – "pragmatik tibbiyot tarixi" shakllandi. Mazkur yo'nalishning asoschilaridan biri Kurt Sprengel (1766-1833) hisoblanadi. U tibbiyot tarixini, bir tomondan, bo'lajak shifokorlarni kasbiy jihatdan shakllantirish vositasi, ikkinchi tomondan esa zamonaviy tibbiyotning rivojlanish mantig'ini anglash imkonini beruvchi ilmiy manba sifatida ko'rgan. Sprengelning qarashlarida tibbiyot taraqqiyoti Germaniya hududlaridagi ma'naviy va intellektual yangilanish jarayonlari bilan ham bog'langan. Bunday yondashuv Napoleon hukmronligi davridagi siyosiy va madaniy sharoitga javob sifatida ham namoyon bo'lgan (Lammel, 2004).

XIX asrning o'rtalariga kelib esa tibbiyot tarixiga nisbatan boshqa bir ilmiy yondashuv – "tarixiy patologiya" konsepsiyasi rivojlandi. Berlin universitetida faoliyat olib borgan Yustus Hecker (1795-1850) va keyinchalik uning ilmiy an'analarini davom ettirgan Avgust Xirsh (1817-1894) kasalliklarning tarixiy shakllanishi, kelib chiqish sabablari va turli davrlardagi tarqalish xususiyatlarini tadqiq etishga e'tibor qaratdilar. Bu yo'nalish tibbiyot tarixini shunchaki o'tmishdagi tibbiy bilimlarni tavsiflashdan chiqarib, kasalliklar evolyusiyasi va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga yo'naltirdi.

Rossiya imperiyasida ham tibbiyot tarixini kasalliklar tarixi bilan bog'lashga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi. Bu borada Kiyev universiteti olimi Grigoriy Nikolayevich Minx (1836-1896)ning faoliyati alohida e'tiborga loyiq. U vabo va moxov kabi yuqumli kasalliklarning tarixi hamda epidemiologik xususiyatlarini tadqiq etgan. Uning ishlari tibbiyot tarixini epidemiologik jarayonlarni tarixiy nuqtayi nazardan tushuntirish bilan bog'lash imkonini berdi (Huisman, 2004).

Fransiyada esa XIX asr o'rtalarida tibbiyot tarixining rivojlanishiga pozitivistik falsafa sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ogyust Kont tomonidan ilgari surilgan pozitivistik qarashlar ilmiy bilimni faktlar va kuzatiladigan hodisalar asosida o'rganishni ustuvor yo'nalishga aylantirdi. Shu davrda klinik tibbiyot va universitet ta'limining jadal rivojlanishi natijasida tibbiyot tarixiga oid bilimlarni saqlash va o'rganish vazifasini bajaruvchi alohida ilmiy-madaniy markazlarning ahamiyati oshdi. Jumladan, Fransiya kolleji hamda Fransiya Tibbiyot akademiyasining muzeyi va kutubxonasi shunday markazlardan bo'lgan.

Fransuz tarixshunosligida Emil Littré (1801-1881) va Sharl Daremberg (1817-1872) qadimgi tibbiyot merosini ilmiy muomalaga kiritishga katta e'tibor qaratdilar. Ularning tadqiqotlarida qadimgi tabiblarning asarlarini tarjima qilish, tarixiy manbalarni izohlash va zamonaviy shifokorlar uchun tushunarsiz yoki kam o'rganilgan matnlarni sharhlash muhim

o'rin tutdi. Mazkur yondashuv pozitivistik tarixshunoslikka xos bo'lgan manbani imkon qadar aniq tiklash va faktlarni hujjatli asosda taqdim etish tamoyiliga tayangan (Gourevitch, 2004).

Tibbiyot tarixiga bunday filologik va manbashunoslik yondashuvi boshqa mamlakatlarda ham o'z tarafdorlariga ega bo'ldi. Germaniyada 1846-yilda tashkil etilgan "Janus" jurnali tibbiyot tarixi masalalarini yorituvchi muhim nashrlardan biriga aylandi. Biroq ushbu nashrning yo'nalishi o'sha davrda ilmiy tibbiyotning yangi, eksperimental usullarini qo'llab-quvvatlovchi ayrim amaliyotchi shifokorlar tomonidan an'anaviy yoki "reaksion" yondashuv sifatida baholangan.

Rossiya ilmiy muhitida esa ushbu an'ananing yorqin vakillaridan biri Kiyev universiteti professori, amaliyotchi shifokor va qadimgi tillar bo'yicha mutaxassis Saveli Grigorevich Kovner (1837-1896) bo'ldi. U tibbiyot tarixini o'rganishda qadimgi yozma manbalarni chuqur tahlil qilishga alohida ahamiyat bergan. Kovner (1878), shuningdek, tibbiy utilitarizmning ayrim jihatlarini tanqid qilgan va tibbiyot tarixining mustaqil ilmiy ahamiyatini asoslashga harakat qilgan.

Tibbiyot tarixshunosligining umumiy rivojlanish tendensiyalari va unda shakllangan asosiy ilmiy yondashuvlar keyinchalik turli mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston tibbiyot tarixini o'rganish jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa, XX asr davomida O'zbekistonda tibbiyot ta'limi, ilmiy-tadqiqot muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot fanining rivojlanish tarixiga oid turli ilmiy maqola, monografiya va tadqiqotlar yuzaga keldi. Ushbu tadqiqotlarda tibbiyot muassasalarining tashkil topishi, ilmiy maktablarning shakllanishi, alohida tibbiyot yo'nalishlarining rivojlanishi hamda yetuk tibbiyot olimlarining ilmiy faoliyati turli tarixiy davrlar kesimida yoritilgan. Mustaqillik yillarida esa mazkur yo'nalishdagi izlanishlar yangi ilmiy-metodologik qarashlar asosida davom ettirilib, ilgari yetarlicha o'rganilmagan masalalarni qayta ko'rib chiqish, mahalliy

manbalarni ilmiy muomalaga kiritish va O'zbekiston tibbiyot tarixini milliy tarixning tarkibiy qismi sifatida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda XX asr va mustaqillik yillarida tibbiyot tarixiga bag'ishlab yaratilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu yo'nalish tarixshunosligining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va mavjud ilmiy muammolarini aniqlash imkonini beradi.

XX asrning 30-40-yillarida sog'liqni saqlash sohasi faoliyati aksariyat mualliflarning ishlarida faqat maqolalar ko'rinishida tahlil etildi (Inyutin, 1933). Bu davrda siyosiy hayotdagi ba'zi cheklashlar, turli axborotlar va arxiv hujjatlarining kamligi ilmiy adabiyotlar soni va sifatining qisqarib, kamayishiga sabab bo'ldi.

I.A. Kassirskiy (1935) O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib issiq iqlimning inson organizmiga ta'sirini o'rganishga harakat qildi. Muallif o'lkada faoliyat ko'rsatuvchi vrach faqat vrach-naturalist bo'lishi yetarli emas, u avvalo, keng ma'lumotli va katta dunyoqarashga ega bo'lishi bilan birga tabiiy fanlar, ya'ni iqlimshunoslik, astronomiya, geologiya, kimyo, etimologiya kabi fanlarni ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozimligini uqtiradi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi tarixiga bag'ishlangan yirik asarlarning yaratilishi XX asrning 40-yillariga to'g'ri keldi (Farxadi, 1944). Ular orasida ayniqsa A. Karimov va H.Z. Zohidovlarning monografiyalari O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi ilk marotaba bir tizimga solingan holda tahlil etilganligi, juda sodda, oddiy tilda bayon qilinganligi va soha faoliyatiga doir ko'plab tarixiy dalillarning bir joyda jamlanganligi bilan qimmatlidir. A. Karimov o'z risolasida O'zbekiston hududida 1914-1946 yillar davomida faoliyat ko'rsatgan ambulatoriya-poliklinikalar, davolash punktlari, ayollar va bolalar maslahatxonalari, umumiy davolash o'rinlari haqidagi raqamlarni to'plab, ularni jadvalga tushirishga muvaffaq bo'ladi. Tibbiy statistika yetarli darajada shakllanmagan, kasallanganlarni ro'yxatdan o'tkazish ishlari

to'la amalga oshirilmagan bir sharoitda bu kabi jadval tuzish ancha murakkab ish edi.

Sog'liqni saqlash faoliyatini o'rganishda XX asrning 50-60-yillari alohida davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda aholi salomatligini muhofaza qilish ishining turli yo'nalishlari maxsus tadqiq etildi va ko'plab ilmiy maqolalar yaratildi. R. S. Soatov, L.M. Isayev, K.S. Zoirov, U. Alimov, G.A. Batkis, V.A. Svensov, M.D. Kovrigin kabilarning maqolalari shular jumlasidandir. R.S. Soatov va G.A. Batkislarning maqolasida sovet hokimiyatining O'rta Osiyo respublikalarida sog'liqni saqlash tizimini yo'lga qo'yish borasidagi ishlari bayon etilgan bo'lsa, A.M. Isayev, V.A. Svensov, U. Alimov, A.A. Qodirovlar ishida o'lkada yuqumli kasalliklarga qarshi kurash ishining borishi, bezgak, rishta kabi kasalliklar bilan aholining kasallanishi kabi masalalar haqidagi fikrlar beriladi.

XX asrning 70-yillarida sog'liqni saqlash sohasidagi haqiqiy ahvolni yoritgan va muammolarning sabablarini to'g'ri ochib bera oladigan ilmiy ishlar vujudga keldi. Masalan, O'zbekistonda sil kasalligini o'rganish borasida katta yutuqlarga erishgan olim Sh.A. Alimovning (1970) maqolasida soha faoliyatiga doir kamchiliklar ochib berildi. Muallif respublikada sil kasalligiga qarshi kurash tadbirlari samaradorligining pastligi, imkoniyatlar to'la ishga solinmayotganligini ta'kidlash bilan birga, sohadagi muvaffaqiyatsizliklarning omillarini ham asoslab beradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixi fani yangi uslubiy tamoyillar asosida yaratilgan asarlar bilan boyib bordi. Ularda sog'liqni saqlash sohasiga bir tomonlama yondashuv uslubidan voz kechilib, bashariy qadriyatlar va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turib ijtimoiy hayot tarixining turli davrlari va yo'nalishlarini o'z ichiga olgan ilmiy maqolalar, monografiya va kollektiv monografiyalar chop etildi hamda dissertatsiyalar himoya qilindi. Shuningdek, O'zbekiston tarixining sovet davriga oid chop etilgan darsliklarda va turli ma'lumotnomalarda muammoning ayrim jihatlari yoritildi. Xususan, D. Alimova, A. Golovanov, S. A'zamxo'jayev,

Q. Rajabov, S. Shodmonova, S. Tursunov, Yu. Ergasheva, S. Davletov, K. Rahmonov va boshqalar o'z monografiyalari va kitoblarida muammoning ba'zi qirralarini tahlil qilishdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tibbiyot fani tarixining o'rganilishi uzoq davom etgan va bir necha bosqichni qamrab olgan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. XX asrdagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor tibbiy muassasalarning tashkil topishi, sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi, tibbiy ta'limning rivojlanishi, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyati hamda taniqli shifokor va olimlarning kasbiy faoliyatini yoritishga qaratilgan. Ayniqsa, sovet davri tadqiqotlarida tibbiyot sohasidagi tashkiliy o'zgarishlar, sanitariya-gigiyena, epidemiologiya, onalik va bolalikni muhofaza qilish, travmatologiya, parazitologiya kabi yo'nalishlarning rivojlanishi ko'proq tibbiy-amaliy nuqtai nazardan tavsiflangan.

Mustaqillik yillarida esa O'zbekiston tibbiyot tarixi tadqiqotlarining mazmuni va metodologik yondashuvlarida muayyan o'zgarishlar kuzatildi. Tibbiyot sohasining taraqqiyoti mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganila boshlandi. Ilmiy-tadqiqot institutlari, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, ilmiy maktablar va alohida olimlar faoliyatiga tarixiy nuqtai nazardan baho berish, arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlardan foydalanishga e'tibor kuchaydi. Shu bilan birga, urush va urushdan keyingi yillardagi tibbiy infratuzilma, evakuatsiya gospihallari, tibbiy kadrlar tayyorlash, parazitar va yuqumli kasalliklarga qarshi kurash kabi masalalarning o'rganilishi tibbiyot tarixining ko'lamini yanada kengaytirdi.

Xulosa

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tibbiyot tarixi bo'yicha muayyan ilmiy baza shakllangan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishda hali yetarlicha o'rganilmagan masalalar mavjud. Xususan, tibbiyot ilmiy-tadqiqot muassasalarining uzoq yillik faoliyatini kompleks tarixiy tahlil qilish, ularda shakllangan ilmiy maktablarning

avlodlar davomidagi davomiyligini aniqlash, mahalliy olimlarning milliy tibbiyot fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasini qayta baholash, shuningdek, sovet va mustaqillik davri tarixshunosligi o'rtasidagi farqlarni qiyosiy o'rganish dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tibbiyot tarixi tarixshunosligini faqat tibbiy yutuqlar yoki muassasalar tarixi bilan cheklab

qo'ymasdan, uni jamiyat taraqqiyoti, davlatning sog'liqni saqlash siyosati, tibbiy ta'lim, ilm-fan institusionallashuvi va aholining ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv O'zbekistonda tibbiyot fanining shakllanishi va taraqqiyotini xolisroq baholash, mavjud tarixshunoslikdagi bo'shliqlarni aniqlash hamda sohaning yangi ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

References:

1. Алимов, Ш. (1970). Состояние борьбы с туберкулезом в республике и пути повышения её эффективности. *Медицинский журнал Узбекистана*, (9), 87–91.
2. Алимов, У. (1959). Успехи и задачи в борьбе с инфекционными болезнями в Андижанской области. *Медицинский журнал Узбекистана*, (2).
3. Баткис, Г. А. (1955). Достижения здравоохранения в республиках Советского Востока. *Здравоохранение Таджикистана*, (2).
4. Гиппократ. (1994). *О древней медицине*. В Гиппократ. Избранные книги. 143–169.
5. Зоҳидов, Ҳ. З. (1949). Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш ишининг 25 йиллиги. *Медицина*.
6. Заиров, К. С. (1957). Организация санитарно-противоэпидемиологического дела в Узбекистане. *Медицинский журнал Узбекистана*, (11).
7. Иню́тин, А. Е. (1933). Два года работы Государственного медицинского института. *За социалистическое здравоохранение Узбекистана*, (1–2), 83–84.
8. Исаев, Л. М. (1954). Борьба с малярией в Узбекской ССР. *За социалистическое здравоохранение Узбекистана*, (6).
9. Каримов, А. (1947). *Здравоохранение Советского Узбекистана*. Объединенное издательство «Правда Востока».
10. Кассирский, И. А. (1935). *Очерки гигиены жаркого климата в условиях Средней Азии*. Ташкент.
11. Ковнер, С. Г. (1878). *История медицины*. Ч. 1: Медицина Востока, медицина в Древней Греции до Гиппократа. Университетская типография.
12. Ковнер, С. Г. (1898). *История средневековой медицины*. Типография Императорского университета.
13. Ковригин, М. Д. (1957). *Охрана народного здоровья в СССР*. В Сорок лет советского здравоохранения: К 40-летию Великой Октябрьской революции (1917–1957).
14. Кривнов, П. П. (1940). *Развитие народного здравоохранения в Кара-Калпакской АССР*. В Советское здравоохранение Кара-Калпакии: Сборник статей. 3–9.
15. Литтре, Э. (1873). *Медицина и медики*. Типография Ф. Сушинского.
16. Мевзос, М. П. (1940). Противомаларийные мероприятия на строительстве Большого Ферганского канала им. И. В. Сталина. *Медицинская паразитология и паразитарные болезни*, (4).
17. Минх, Г. Н. (1890). *Проказа и песь*. Т. 2: История проказы и песи. Киев.
18. Минх, Г. Н. (1898). *Чума в России (Ветлянская эпидемия 1878–1879 гг.)*. Ч. 1. Киев.

19. Сагатов, Р. С. (1954). Успехи советского здравоохранения в Узбекистане. *За социалистическое здравоохранение Узбекистана*, (4).
20. Свинцова, В. А. (1957). К вопросу ликвидации малярии в Чархинском районе Самаркандской области. *Медицинский журнал Узбекистана*, (7).
21. Слонимская, И. А. (1938). Вопросы здравоохранения в дореволюционной деятельности большевиков. *Советская медицина*, (14–15).
22. Фархади, Р. Р. (1944). *Очерк развития и анализ лечебно-научной деятельности специального госпиталю 1267 в годы ВОВ*. Самарканд.
23. Gourevitch, D. (2004). *Charles Daremberg, his friend Emile Littré, and positivist medical history*. In F. Huisman & J. H. Warner (Eds.), *Locating medical history: The stories and their meanings*. 33–51.
24. Huisman, F., & Warner, J. H. (2004). *Medical histories*. In F. Huisman & J. H. Warner (Eds.), *Locating medical history: The stories and their meanings*. 4–5.
25. Lammel, H. U. (2004). *To whom does medical history belong? Johann Moehsen, Kurt Sprengel, and the problem of origins in collective memory*. In F. Huisman & J. H. Warner (Eds.), *Locating medical history: The stories and their meanings*. 33–52.